

TALABA-YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillatirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili va vazifalar, ilmiy yangiliklar hamda tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: UNESCO, UNEP, Yer Sammiti, STEAM, BMT, Gamifikatsiya.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR USING PROBLEMATIC EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL CULTURE IN STUDENT- YOUTH

Annotation. This article presents the analysis and tasks of scientific research carried out to improve the methodology for the use of problematic educational technology in the development of environmental culture in students and young people, Scientific and practical significance of scientific innovations and research results, reliability of research results, introduction of research results, conclusions and recommendations.

Keywords: UNESCO, UNEP, Earth Summit, STEAM, UN, gamification.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОБЛЕМНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ-МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье представлен анализ проведенных научных исследований и поставленных задач по совершенствованию методики использования проблемной образовательной технологии в развитии экологической культуры у студентов и молодежи, научные новшества и научно-практическая значимость результатов исследований, достоверность результатов исследований, внедрение результатов исследований, выводы и рекомендации.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, ЮНЕП, Саммит Земли, STEAM, ООН, геймификация.

Jahon ilmiy doiralarida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi ilmiy muammo sifatida ta'lim tizimidagi ekologik ta'lim va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari zamirida vujudga kelgan. Hozirgi global ekologik inqirozning asosiy sabablaridan biri madaniyatning past darajasi, shu jumladan ekologik inqiroz ekanligini anglamoqda. XXI asr ostonasida shaxsning ekologik rivojlanishi davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi va semantik omiliga aylanmoqda, chunki u ko'p jihatdan nafaqat tabiatni muhofaza qilish vositasi, balki umuman insoniyat tsivilizatsiyasi vazifasini ham bajaradi. Ushbu masala xalqaro va davlatlararo bitimlar, hujjatlar, UNESCO UNEP komissiyalarining ko'plab hujjatlari, ayniqsa, UNESCOning "Inson va biosfera", UNEPning "Jahon madaniyati", "Yevropa ekologik ta'limi", "Ekologik madaniyat" kabi yetakchi xalqaro loyihalarida o'z ifodasini topgan. 1970 yil Nevada (AQSh) shahrida o'tkazilgan Forumda ekologik ta'lim mazmunini rivojlantirish tamoyillariga yangicha yondashuvlar belgilanib, uni ilmiy-pedagogik soha sifatida shakllantirish jarayoniga va 1972 yili Stokgolm (Shvesiya) konferensiyasida xalqaro ekologik dastur (UNEP) qabul qilinishiga asos solindi. Shuningdek, ekologik ta'lim vazifalariga konseptual yondashuvlar va ilmiy aniqlik kiritish masalalari UNESCO rahnamoligidagi Tbilisi, Krasnoyarsk, Moskvada o'tkazilgan konferensiyalarda "Atrof muhit muammolari yechimida ta'limning o'rni" mavzusi ekologik ta'limni rivojlantirish milliy dasturlariga asos bo'lgan tamoyillar, tavsiyalar ishlab chiqilishiga asos bo'ldi. 1992 yilda Rio-de-Janeyroda tashkil etilgan BMTning "Atrof-muhit va rivojlanish" bo'yicha o'tkazilgan "Yer Sammiti"ning asosiy maqsadi XXI asrda atrof-muhit va rivojlanish masalalari bo'yicha yangi xalqaro harakatlar rejasini ishlab chiqishga bag'ishlandi.

Dunyo miqyosida biologiya ta'limida ham ekologik madaniyatni rivojlantirish masalasi qizg'in muhokamalar mavzusiga aylanib borgani sari, tabiiy ravishda ekologik madaniyatni shakllantirish mavzusi

ham dolzarblik kasb eta boshladi. Masalaning ilmiy muhokamalarida bosh g'oya asosan, ekologik va biologik muammolar haqidagi bilimlarni ekologiya fani asosida shakllantirish zarurligiga yo'naltirilib, biologik bilimlarga asoslangan ekologik muammolarni hal etish ilmiy yondashuvi maqbul deb topilmoqda. Umumta'lim maktab o'quv dasturlarida tabiiy resurslar mazmundagi didaktik materiallar ekologik madaniyatning mohiyatini shakllantirishga yo'naltirilishi bilan belgilanmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar maydoniga kirib kelgan ekologik madaniyatni shakllantirish ilmiy muammosi turli fanlar o'zaro aloqadorligi hamda uyg'unligi bilan bog'liqligi bois, o'z yechimini biologik, ekologik va pedagogik tadqiqotlar tutash nuqtalarini yoritish orqali topishiga ko'proq urg'u berilmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, umumta'lim maktab o'quvchilarining ekologik madaniyati hamda biologik-ekologik savodxonlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biologiya va ekologik ta'lim va tarbiya masalalari bilan bog'liq jihatlar 2023-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida barqaror turmush tarzini targ'ib qilish Milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida o'z aksini topganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi. Jumladan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ning 80-maqsadida "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish"[1] hamda 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"da "...atrof-muhitni muhofaza qilish muammosini hal etishni ilmiy jihatdan ta'minlash"[2] kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar asnosida aytish mumkinki, respublikamizda oliy ta'lim muassasalarida o'quv muhitining tashkiliy-pedagogik sharoitlarini o'rganish hamda talaba-yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, butun dunyo ilmiy doirlarida bo'lgani kabi, o'zbek olimlari tomonidan ham biologiya va ekologik bilimlarning hayot sohalari bilan bog'liq jihatlarini yoritish orqali jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish borasida ko'p ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy yondashuvga asoslangan ekologiya va tabiatga munosabat masalalari A.Xodjimotov, M.Musayeva, D.Allaberganova, B.Alixanov, B.Ziyomuxamedov, Y.Shodimetov, A.Berdimuratova, D. Abullayeva va boshqa shu kabi olimlarning ilmiy ishlarida; ekologiya muammolarining siyosiy talqin va tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlardan respublikamiz olimlaridan S.Mamashakirov, A.Nigmatov, O'.Tilavov, E.Qodirov, J.Xolmuminov, E.Ikromov, A.Xotamov, Z.Yazdonov va boshqalarning ishlarini qayd etish mumkin.

MDH davlatlarida A. M. Lukas, M. Bler, D.T. Blumshteyn, S. Sylan Ekologik, M. Brodi, M. Storksдик, J.F. Disinger va K.E. Rot, K.S. Hollweg, J.R. Teylor, R.V. Baybee, T.J. Martcinkovskiy, W.C. McBeth, P. Zoydolar, H.R. Hungerford, T. Volk, A.B. Igbokve, D. Krnel, S. Naglich, H. Kulemeyer, H. Van Den Berg, N. Lagerweij, S. Pe'er, D. Goldman, B. Yavetz, D. Simmons, P. Stern, N.M. Stukalenko, D. Ozzell, A. Rutland, D. Uistans, J.A. Karide, P. A. Meira Kartea va boshqa olimlar ekologik dunyoqarashni shakllantirish hamda ekologik ta'lim-tarbiya berishning ilmiy qoidalari yoritilgan bulishsa S. Kuk va J.L. Berrenberg, L. Head, D. Trigger, J. Malkok, V. Makbet, T. L. Volk va boshqalar tadqiqoyida atrof-muhitni o'rganish, undan qanday foydalanish va tushunchalarini madaniyatning rivojlanishiga ta'sirini o'rganishgan, hamda ta'lim tizimiga ekologik savodxonlikni singdirishda bir qancha zamonaviy metodlardan foydalanishni tushuntirib berishgan.

Xorijiy davlatlarda J.Zedler, J.Callaway, F.Leeming, M.Cobern, P.Feinsinger ilmiy ishlarida ekologik ta'lim dasturlarida atrof-muhit muhofazasi, ekotizimni tadqiq etishda integratsion ta'lim hamda ekologik ta'lim-tarbiya berish masalalari yoritilgan. Tahlillarga ko'ra, ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha ko'p izlanishlar olib borilgan bo'lsada, umumta'lim maktab o'quvchilarida geografik-ekologik madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida ushbu masalani yanada takomillashtirish mexanizmlari bugungi zamon talablariga mos darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar, meyoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatish, anketa, topshiriqlar, talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini modellashirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida mintaqaviy ahamiyatga ega ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha o'quv-tadqiqot faoliyatida talaba-yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlashning normativ-huquqiy asoslari "inson-tabiat" munosabatlarining asosiy ziddiyatlari haqidagi ilmiy paradigmlar doirasida nazariy-metodologik jihatdan ochib berilgan hamda ekologik madaniyatni

shakllantirishda biologiya fanining oʻrni va taʼsirchanligi aniqlangan.

Talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli taʼlim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli ilmiy-pedagogik shart-sharoitlar asosida pedagogik yondashuvlar (shaxsga yoʻnaltirilgan, kompetensiyaviy, integrativ, faoliyatga yoʻnaltirilgan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan), tamoyillar (tabiat va jamiyat oʻzaro bogʻliqligi, barqaror rivojlanish, shaxsiy masʼuliyat, ekologik ong va tafakkurni rivojlantirish, amaliyot va nazariyaning uygʻunligi), mezonlar (bilim, motivatsiya, amaliy faoliyat, axloqiy-psixologik)ning metodik tizimi asoslangan hamda takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning kontseptual pedagogik qoidalarini (ekologik ong va tafakkurni shakllantirish, ekologik axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, ekologik va ijtimoiy faollikni oshirish, fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish)ni asoslashda va oʻquv jarayoniga innovatsion yondashuv (ekologik loyiha metodikasi, ekologik tadqiqot usuli, Gamifikatsiya (oʻyin texnologiyalari), virtual va kengaytirilgan raqamli texnologiyalari, STEAM yondashuvi, ekologik koʻngillilik va tashabbuslar) asosida, ekologik va biologik madaniyat oʻquv tizimiga oid tegishli ilmiy-amaliy qoʻllanmalar hamda didaktik taʼminot tayyorlangan.

Talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish mezonlari va darajasi (ekologik bilimlarning izchilligi, ekologik bilimlarni ekologik ijodiy faoliyatda qoʻllash qobiliyati, jamiyat va tabiatga hissiy sezgirlik va masʼuliyatli munosabat)ni integral yondashuvlar (tabiat va madaniyat, insonparvarlik, gumanitar, qoʻshimcha, oʻzgaruvchanlik) asosida individuallashtirish va mintaqalashtirishga doir pedagogik diagnostik vositasi ishlab chiqilgan.

Metodologik yondashuv va tamoyillarga asoslanganligi, tadqiqiy kimyoning mantiqiy asoslariga tayanilgani, tadqiqot usullarining validligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va natijalarining identivligini taʼminlangani, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining aprobatsiyadan oʻtkazilgani, tajriba-sinov ishlari maʼruza, amaliy va laboratoriya mashgʻulotlarida amalga oshirilgani, olingan natijalarning ahamiyatlilik darajasi sifat jihatdan tahlil qilingani olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan taʼminlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati (ekologik tafakkurni rivojlantirish, ekologik ong va masʼuliyatni shakllantirish, tabiat va jamiyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni tushunish, fanlararo yondashuvni taʼminlash, ilmiy asoslangan ekologik muammolarni tushunish, talabalarning ekologik muammolarni hal qilish koʻnikmasini rivojlantirish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, jamoaviy ishlash va ekologik loyihalar yaratish, ekologik barqarorlik boʻyicha real amaliy loyihalar, ekologik dasturlarni rivojlantirish) talaba-yoshlarning muammoli taʼlim texnologiyasidan foydalanish talabalarning ekologik ongini shakllantirishda ilmiy va amaliy asos boʻlib xizmat qiladi. Bu usul orqali ekologik muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, ekologik qarorlar qabul qilishda innovatsion yondashuvlar shakllanadi, talabalar real loyihalar va ekologik tadbirlarda faol ishtirok etadi. Natijada, barqaror rivojlanishga yoʻnaltirilgan, ekologik masʼuliyatli va faol fuqarolar yetishib chiqadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muammaoli-izlanishli-kreativ vaziyatlarni intensiv qoʻllashga doir topshiriqlar ishlab chiqilgani, ekologik madaniyatni rivojlantirish tadqiqotlariga oid kontekst topshiriqlar tayyorlashda muammoli taʼlim texnologiyasi muhitini yaratishning tashkiliy-metodik, baholashning diagnostik tizimlari takomillashtirilgani hamda talaba-yoshlarning ekologik madaniyatini shakllantirishga koʻmaklashadi.

Talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli taʼlim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida:

mintaqaviy ahamiyatga ega ekologik muammolarni hal qilish boʻyicha oʻquv-tadqiqot faoliyatida talaba-yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlashning normativ-huquqiy asoslari "inson-tabiat" munosabatlarining asosiy ziddiyatlari haqidagi ilmiy paradigmalar doirasida nazariy-metodologik jihatdan ochib berilgan hamda ekologik madaniyatni shakllantirishda biologiya fanining oʻrni va taʼsirchanligi aniqlashtirilgan Natijada talaba-yoshlarni ekologik madaniyati rivojlantirilgan;

talaba-yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda muammoli taʼlim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish modeli ilmiy-pedagogik shart-sharoitlar asosida pedagogik yondashuvlar, tamoyillar, mezonlarning metodik tizimi hamda takomillashtirish mexanizmlari oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan. Natijada, talaba-yoshlarning ekologik madaniyati muammoli taʼlim texnologiyalari asosida biologik resurslarni muhofaza qilish koʻnikmalarini shakllantirilgan;

talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning kontseptual pedagogik qoidalarini asoslashda va oʻquv jarayoniga innovatsion yondashuvlar asosida, ekologik va biologik madaniyat oʻquv

tizimiga oid tegishli ilmiy-amaliy qo'llanmalar hamda talabalarning ekologik madaniyati mazmuniga produktiv barqarorlikda kiritish asosida takomillashtirilgan. Natijada, talaba-yoshlarda atrof-muhitni asrash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan didaktik ta'minotlar takomillashtirilgan;

talabalarining ekologik madaniyatini rivojlantirish mezonlari va darajasi (ekologik bilimlarning izchilligi, ekologik bilimlarni ekologik ijodiy faoliyatda qo'llash qobiliyati, jamiyat va tabiatga hissiy sezgirlik va mas'uliyatli munosabat)ni integral yondashuvlar (tabiat va madaniyat, insonparvarlik, gumanitar, qo'shimcha, o'zgaruvchanlik) asosida individuallashtirish va mintaqalashtirishga doir pedagogik diagnostik vositasi ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan. Natijada, talaba-yoshlarni ekologik madaniyatining rivojlantirish darajalarini tahlil qilish va baholashga xizmat qilgan.

Talaba-yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va atrof-muhitni muhofaza qilishga undaydi. Muammoli ta'lim nazariy-metodik asoslarga muvofiq amalga oshirilganda, talabalarining ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Kelajakda ushbu sohada tadqiqotlar olib borish va muammoli ta'lim texnologiyalarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda tabiiy resurslarga e'tiborli munosabatni shakllantirish - bu murakkab va ko'p bosqichli jarayon. Ushbu jarayon ilmiy asoslangan va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan bo'lishi kerak. Faqat shundagina biz kelajakda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalashimiz mumkin. Kelajakda ushbu sohada tadqiqotlar olib borish va ta'lim metodlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Muammoli ta'lim texnologiyasi asosida talabalarining ekologik madaniyatini tizimli rivojlantirish - bu pedagogik va psixologik jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan murakkab jarayon. Ushbu jarayon muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim maqsadi aniq belgilangan, ta'lim mazmuni talabalarining ehtiyojlariga mos, ta'lim metodlari interfaol va o'qituvchi talabalarga yordam berishga tayyor bo'lishi kerak. Kelajakda ushbu sohada tadqiqotlar olib borish va ta'lim metodlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ta'limiy texnologiyalar asosida o'rganilishi hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu borada muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, xorij tajribasini o'rganish va qo'llash orqali ushbu sohadagi faoliyatni yanada takomillashtirish mumkin.

Tavsiyalar: ta'lim muassasalarida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish. O'qituvchilarni muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish. Talabalarga ekologik muammolar haqida ma'lumot berish va ularning yechimini topishga undash. Ekologik loyihalarni amalga oshirish va ularga talabalarni jalb qilish. Ta'lim dasturlariga ekologik mavzularni kiritish. Talabalarining ekologik savodxonligini oshirish. Talabalarni atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amaliy faoliyatga jalb qilish. Ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularni keng yoritish. Ekologik ta'lim va targ'ibotga investitsiya kiritish. Ta'lim dasturlariga muammoli ta'lim texnologiyasini kengroq joriy etish. O'qituvchilarni muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish. Talabalarni ekologik muammolar haqida ma'lumot berish va ularning yechimini topishga undash. Ekologik loyihalarni amalga oshirish va ularga talabalarni jalb qilish. Talabalarining ekologik faoliyatini rag'batlantirish. O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribani o'rganib, eng maqbul ta'limiy texnologiyalarni joriy etish. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. O'qituvchilarning ekologik savodxonligini oshirish bo'yicha kurslar tashkil etish. Talabalarining ekologik faoliyatga qiziqishini oshirish uchun turli xil tadbirlar o'tkazish. Ekologik ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu nazariy-metodik asoslar talaba-yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga, ilmiy-metodik xususiyatlar talabalarda tabiiy resurslarga e'tiborli munosabatini samarali shakllantirishga, pedagogik-psixologik aspektlar muammoli ta'lim texnologiyasi asosida talabalarining ekologik madaniyatini tizimli rivojlantirishga tavsiyalar talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ta'limiy texnologiyalar asosida o'rganilishini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrofmuhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5863-son. 2019-yil 30-oktyabr. <https://lex.uz/docs/4574008>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida PF-5863-son [Farmoni](https://lex.uz/docs/4574008). <https://lex.uz/docs/4574008>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risida PF-46-son [Farmoni](https://lex.uz/docs/5801444). <https://lex.uz/docs/5801444>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yildagi 28-yanvar "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-76-son [qaroriga](https://lex.uz/docs/5801426). <https://lex.uz/docs/5801426>